

**SOBIR O'NARNING "BIR O'LARMAN CHAVANDOZ" VA
TOG'AY MURODNING "YULDUZLAR MANGU YONADI"
ASARLARI QIYOSIY TALQINI**

Sa'dullayeva Ruxshona Asqar qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,
ilmiy rahbar, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali Sobir O'nar hayoti va ijodi, u yaratgan asarlar hamda asarlaridagi sheva tiliga alohida e'tibor qaratiladi. Sobir O'narning "Bir o'larman chavandoz" hikoyasi va Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissalari bo'yicha ba'zi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Milliy adabiyot, sheva tili, milliy o'yin, ko'pkari, oshna, uyg'unlik, debyut, foniy, boqiy, jaydari, kompozitsiya, Tog'ay Murod, syujet.

**SABİR ONAR VE TOGAY MURAD'IN "BİNİCİ OLARAK ÖLECEĞİM" ADLI
ESERİ "YILDIZLAR HER ZAMAN YANAR" ESERLERİNİN
KARŞILAŞTIRMALI YORUMU**

Sadullayeva Rukhshona Askar kizi,
Özbekistan-Finlandiya Pedagoji enstitüsü öğrencisi
Imomkulova Gulchehra Norboboyevna,
bilimsel danışman, Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni

Özet. Bu makale aracılığıyla Sabir Onar'ın hayatı, eserleri, yarattığı eserler ve eserlerindeki Şeva dili üzerinde özellikle durulmaktadır. Sabir Onar'ın "Sürücü olarak öleceğim" öyküsü ve Togay Murad'ın "Yulduzlar Mangu Yonadi" adlı kısa öyküsüne ilişkin yorumlar sunuldu.

Anahtar kelimeler. Milli edebiyat, Şeva dili, milli oyun, kopkari, oshna, armoni, çıkış, fany, biqi, jaidari, kompozisyon, Murad Amca, olay örgüsü.

**"Я УМРУ ВСАДНИКОМ" САБИРА ОНАРА И ТОГАЙ МУРАД
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ
"ЗВЕЗДЫ ВСЕГДА ГОРЯТ"**

Садуллаева Рухиона Аскар кызы,
Студентка Узбекско-Финского педагогического института
Имомкулова Гулчехра Норбобоевна,
научный руководитель, Узбекско-финского педагогического института

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено жизни и творчеству Сабира Онара, созданным им произведениям, шевскому языку в его произведениях. Представлены некоторые комментарии к рассказу Сабира Онара "Я умру наездником" и рассказам Тогай Мурада "Юлдузлар Мангу Йонади".

Ключевые слова. национальная литература, шевский язык, национальная игра, копкари, ошна, гармония, дебют, фаны, бики, джайдари, композиция, дядя Мурад, сюжет.

**COMPARATIVE INTERPRETATION OF SOBIR ONAR'S "I WILL DIE A RIDE"
AND TOGAY MUROD'S "THE STARS BURN FOREVER"**

Sa'dullayeva Rukhshona Askar kizi,

*Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Imomkulova Gulchehra Norboboevna,
Scientific supervisor, teacher of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. *This article focuses on the life and work of Sobir Onar, the works he created, and the dialect language in his works. Some comments are made on Sobir Onar's story "I will die a rider" and Togay Murod's stories "The stars burn forever".*

Keywords. *National literature, dialect language, national play, multi-part, familiar, harmony, debut, mortal, immortal, gallant, composition, Togay Murod, plot.*

Adabiyot – xalq ma'naviy va madaniy hayotini aks ettiruvchi asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan boy merosidir. Asrlar mobaynida uning yuksalishi uchun qanchadan qancha shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar va albatta xalq katta mehnat qilgan. Ne-ne "shoh" asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Bugungi kunda ham adabiyotimiz yangilanib, yangi iste'dodlar paydo bo'lib, milliy va jahon adabiyotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ana shunday iste'dodlardan biri, "dengizdan tomchi" – Sobir O'nardir. To'liq ismi sharifi Sobir Hamzayevich O'narov bo'lib, 1964-yil 25-fevralda Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani, Quvkalla qishlog'ida tug'ilgan. Aynan Sobir taxallusi ostida ijod qilgan. Yozuvchi, muharrir, tarjimon, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi. Ilk hikoyasi "Kunsuluvning xatlari" va ilk kitobi "Orzuga to'la qishloq" asarlaridir. Bu uning ilk "debyuti" desak mubolag'a bo'lmaydi. Sobir O'nar 1984-2022-yillarda faoliyat olib borgan. Ijodi davomida barakali ijod qila oldi deb baralla ayta olamiz. Afsuski, 2022-yil 18-dekabrda yozuvchi bu foni dunyoni tark etdi va boqiy hayot tomon yo'l oldi. U ona shahrida emas, balki Toshkentning Yunusobod tumanida hayotdan ko'z yumdi va shu yerga dafn etildi. U 58 yoshida ijod pallasida vafot etdi. Hayotlik chog'larida "Davlat mukofoti" laureati, "Do'stlik" ordeni (2022-yil, avgust) sohibi bo'lgan. Sobir O'nar o'rta maktabni bitirib, Toshkent davlat universiteti (hozir O'zMU) ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan va u yerni 1986-yil tamomlagan.

Yozuvchining asarlari talabalik chog'laridanoq omma e'tiboriga tushishni boshlagan. Buning asosiy sabablaridan biri Sobir O'nar ham xuddi Tog'ay Muroddek sodda, sheva tilidan keng foydalangan. Bu o'ziga xoslik unga katta shuhrat keltirdi. Qolaversa, Sobir O'nar o'z asarlarida o'zbek xalqining milliy o'yinlariga alohida e'tibor qaratgan va juda chiroyli tasvirlar bilan tasvirlagan. Jumladan, "Bir o'larman chavandoz" hikoyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu asarda sheva tili va milliy o'yinlar qorishiq holda butun bir asarga "jon" bag'ishlaydi: "O'zim orqasi yer iskamas jaydari tabilchi bo'lsam, xullasi — gapga chechanmasman, yozuvchiligim bo'lganda-ku, o'zim bilardim-a, ha mayli". Ko'rinib turganidek, sodda va lo'nda bo'lgan asar tili hikoya boshidanoq yaqqol sezilib turadi. Asar kompozitsiyasi ham murakkab emas. Syujet kitobxonga anchagina tushunarli hamda hikoya boshidanoq yengil o'qiladi. Asarda xalqimizning milliy g'ururi bo'lgan "ko'pkari" sport o'yiniga alohida urg'u beriladi. Asar bosh qahramoni do'stining sog'ligi vajini ko'pkari bilan bog'lab jaydari tushuntiradi. Asar qahramonlari: Davlatboy Rais, Ko'liboy, Amrillo va boshqa epizodik obrazlar. Qizig'i shundaki, asar hikoya janrida yozilgan bo'lsa ham xuddi Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasiga o'xshab ketadi. Hikoyani o'qir ekanmiz beixtiyor "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi xayolimizda gavdalanadi. Bu ikki yozuvchi ikki joyda tug'ilib ijod qilgan bo'lsalarda, shevasi bir-biriga yaqin. Hattoki yozish, ijod qilish uslubi ham bir-biriga o'xshab ketadi. Ayniqsa Sobir O'nar "Bir o'larman chavandoz" asarining yakunini shunday tugallaydi: "Kechiringlar, jo'ralar, jo'ralarmas, yoronlar, gapimning oxiri mungliroq bo'lib ketdi. Kecha kranning kichkinasi Sanjarchani ko'rib bir o'ychan tortgan edim-da, Davlatboyning bir ikkita qiziq hangomalari esim tushib ketdi, xolos. Har xil odam bor ekanda yer yuzida yashayverarkan, hammasi meniki to'g'ri deb. Hay, mayli, birodarlarim hammamiz o'tib ketamiz dunyodan!..."[5.5] Tog'ay Murod asarlarida xalqona iboralar va ifodalar keng qo'llaniladi. Ko'pincha asar qahramonlari nimagadir intilib, kurashib yashaydi va xarakteri jonli bo'ladi. Sobir O'nar asarlarida esa qochiriqlar va metaforadan keng foydalaniladi. Eng qizig'i

psixologik jihatdan ko'proq yondashiladi va yolg'izlik asosiy tasvir vositasidir. Bu jihat bilan uning asarlarini yoki uslubini biroz Fyodr Dostoyevskiyga ham qiyoslasak bo'ladi.

Tog'ay Murod va Sobir O'nar asarlari insoniy kechinmalar va jamiyatga bo'lgan tanqidiy nigoh orqali ham bir-biriga yaqin turadi. Lekin Tog'ay Murod asarlarida tarixiy va realistik jihatlar ko'zga tashlansa, Sobir O'nar asarlari inson ruhiyati va falsafiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Tog'ay Murod va Sobir O'nar ijodi bir-biridan farq qiladi, biroq har ikkisi ham insoniy kechinmalar va jamiyatga tanqidiy nigoh ustuvor. Tog'ay Murod asarlarida tarixiy va realistik mavzular ko'proq uchrasa, Sobir O'nar inson ruhiyati va falsafiy mavzularga ko'proq e'tibor qaratadi. Ularning asarlari o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan va bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. "Yulduzlar mangu yonadi" asari esa: "Har bandaning ko'kda o'z yulduzi bo'ladi, oshna. Shu yulduzning yongani — shu bandaning yonganidir. Shu yulduzning so'ngani— shu bandaning so'nganidir..."[141,142] deb tugatilgan. Ko'rinib turganidek ikki asar ham deyarli bir xil yakunlanadi. Har ikki yozuvchi ham o'qiguvchiga "oshna" yoki "jo'ra" deb murojaat qiladi, o'ziga yaqin oladi. Asarlar kompozitsiyasi bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Syujet aniq va yaqqol tushinishga oson. Kitobxon ikki adib asarini o'qir ekan, ularning bir-biriga o'xshashligiga taajjublanadi. Chunki asarlar bir-biriga shu qadar o'xshaydiki, o'qiguvchi agarda adiblar bilan tanish bo'lmasa qaysi asar kimniki ekanligini farqlay olmaydi. Lekin bu ikki yozuvchi asarlarini solishtirar ekanmiz ularning farqli jihatlari ham yo'q emas, albatta. Avallo, yozuvchilarning ijod qilgan davrlari bir-biridan farq qiladi. Ya'ni Tog'ay Murod Sobir O'nardan oldinroq XX asrda ijod qilgan. Qolaversa, Tog'ay Murod to'liq sheva tilidan ijod qilgan, lekin Sobir O'nar ijodida asabiylik ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Sobir O'narning "Aka-ukalar" hikoyasida bu yaqqol seziladi: "Ko'mak aka dimiqib derazani ochdi. Bir nimaning xurillagani eshitildi. — Ana, mehmonga deb qo'y so'yilayotir..." Tog'ay Murod asarlarida ayniqsa, har bir so'zga "-da" qo'shib gapirish odatiy holga aylanadi. Asrlar osha ham bu asarlar o'z mavqeyini yo'qotmaydi va keyingi avlodga o'z tiliga muhabbat, milliy g'urur kabi hislarni bera oladi. Kitobxonlar ikki asarni o'qir ekan adabiyotda bir-biriga yaqin bo'lgan ikki "olov" ijodkor borligini his qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T. O'qituvchi, 1986. – 408 b.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: 2005.-76 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.2004.-98.
4. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. T."Nurafshon-kitob ta'minot", 2022.-141b.
5. Sobir O'nar. Ziyo.uz. Bir o'larman chavondoz.